

## BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK VAZIFALARINI BAJARISHIDA REFLEKSIV KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Abdullayeva Barno Sayfuddinovna

P.f.d., professor

Aminova Nasiba

Ta'lismi va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lismi) fakulteti I kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7348320>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada informatsion davrda yashayotgan va faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lismi maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qabul qilingan ma'lumotlarni refleksiya orqali tahlil qila olish hamda bu orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va reflektiv kompetensiyalarini rivojlantirish haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lismi, refleksiya, reflektiv fikrlash, tanqidiy fikrlash, kompetensiya.

### ФОРМИРОВАНИЕ РЕФЛЕКСИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЗАДАЧ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАНИЙ

**Аннотация.** В данной статье высказываются мнения о способности учителей начальных классов, живущих и работающих в информационную эпоху, анализировать полученную информацию посредством рефлексии и посредством этого развивать у учащихся критическое мышление и рефлексивные компетенции.

**Ключевые слова:** начальное образование, рефлексия, рефлексивное мышление, критическое мышление, компетентность.

### FORMATION OF REFLEXIVE COMPETENCES WHEN PERFORMING THE PEDAGOGICAL TASKS OF PRIMARY EDUCATION TEACHERS

**Abstract.** This article expresses opinions about the ability of primary school teachers living and working in the information age to analyze the information received through reflection and through this develop students' critical thinking and reflective competencies.

**Keywords:** primary education, reflection, reflective thinking, critical thinking, competence.


Kompetensiyalar mohiyatini to'laqonli anglash uchun mazkur iboraning lug'aviy ma'nosini tushunib olish taqozo etiladi. Kompetensiya (lotincha: competo — erishyapman, munosibman, loyiqlaman) — ma'lum bir sohadagi bilimlar, tajribalar. Refleksiya – aks ettirish demakdir. Masalan, yorug`lik, tovush, ko`zgu va dengiz to`lqinlarining qaytarilishi, akslanishi refleksiyaga misol bo`la oladi. Ma'lum masofada boshlanish nuqtasiga qaytarilish refleksiyaning yaqqol ta`rifidir. Refleksiyaning mohiyati har bir sohada alohida ochib berilishi mumkin. Pedagogika sohasida refleksiya tanqidiy fikrlash orqali ma'lumotlarni filtrlash deb tushuniladi. Boshlang`ich sinf darslarini tashkillashtirishni ijod darajasiga yetkazish, innovativ va samarador ta'lismi berishda refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish oqituvchi oldidagi muhim vazifalardan biridir. Reflektiv kompetensiyalarini rivojlantirish dars davomida nimalar qilishga va qilinadigan ishlar samara berishiga diqqat qaratish – pedagogning o'z-o'zini kuzatishi va baholashidir. Sinfda darsnng borishi haqida ma'lumot to`plash va bu ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash orqali o'qituvchining amaliyotdagi haqiqiy tamoyillari kashf etiladi. Bu esa o'z navbatida keyinchalik o'quv jarayonidagi o'zgarishlar va yuksalishlarga olib boradi. Reflektiv o'qitish o'z faoliyatini idrok etish, o'qitish davomida turli mashg`ulotlarni qo'llash orqali samaradorlikni aniqlashni

taqozo qiladi. Massachusets texnologiya instituti professori va faylasuf Donald Alan Shon reflektiv kompetensiyalarni rivojlantirish davomiy jarayonligi va insонning o`z bilimini ongli ravishda tajribaga tadbiq etilishi haqidagi nazariyani ilgari surgan. Uning fikricha, reflektiv kompetensiyalar bu uzlusiz ta`lim jarayoniga jalb qilish uchun o`z harakatlari haqida fikr yuritish qobiliyatlaridir. Donald Shon refleksiv amaliyotni ikki turga ajratadi:

- Fikr yoki hodisa, harakatdagi refleksiya:
  - ✓ Vaziyatni idrok etish;
  - ✓ Shu vaziyatda nima qilish haqida qaror qilish;
  - ✓ Qaror qilingan xatti-harakatni amalga oshirish.
- Fikr yoki hodisa, harakat haqida refleksiya:
  - ✓ Vaziyatni qayta eslab jonlantirish;
  - ✓ Vaziyat natijasini kelajakda qanday o`zgartirish mumkinligi haqida qaror qabul qilish.

O`qituvchi dars davomida reflektiv kompetensiyalardan foydalana olishi uchun dastlab oldingi tajribalarini tahlil qila olishi va hodisa orqali kelajakda yanada takomillashgan natijaga erishishi uchun nimalarni amalga oshirishi mumkinligi haqida fikr yuritishi muhimdir. Ya`ni, Donald nazariyasiga ko`ra, tinimsiz oldingi tajribalar haqida fikr yuritish pedagogning refleksiv kompetensiyalarini har bir jarayonga tadbiq qilishiga yo`l ochadi.

Refleksiv o`qitishda o`qituvchi kamoloti haqidagi asar muallifi Bartlet (1990) ta`kidlaydiki, reflektiv kompetensiyalarga ega o`qituvchi bo`lish deganda dolzarb muammoning yechimini “qanday qilib?” savoli orqali ta`lim texnologiyalarini qo`llagan holda aniqlash va aniqlangan yechimlarni amalda qo`llab kattaroq natjalarga erisha oladigan o`qituvchi tushuniladi. Bartlet muammoga reflektiv yondashuvning modelini quyidagicha tavsiflaydi:



Muntazam natjalarni tahlil qilish orqali o`qituvchi sinf hayotini o`zgartirish va samaradorlikni kuchaytirishga erishadi. Yana shuni qo`shimcha qilish mumkinki, reflektiv ta`lim berish bu miyada fikr yoki savollar uchun bo`sht joy ajratishdir. Masalan, “Men hozir kichik yoshdagi bolalarni o`qitish haqida nimalarni bilaman?” bunday turdagи savollarning miyada muntazam takrorlanishi vaqt o`tishi bilan bolalarni o`qitish bilan chuqurroq yondashuvchanlikka undaydi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarini o`qitish davomida o`qituvchi o`ziga quyidagi savollarni berishi zarur:

- Darsning obyekti nima ekanligini o`zim anglab yetdimmi?
- Dars obyekti talablariga javob bera olamanmi?
- Dars obyekti talablariga javob berishim uchun nimalar qilishim zarur?
- Nima uchun men dars obyekti talablariga javob bera olaman?

Bunday tarzdagi reflektiv fikrlash muammolarga yechim topishga yordam beradi.

O`qituvchi har hafta yakunida o`tilgan mavzular bo`yicha quyidagi savollarga javob berisho zarur:

- ✓ Bu hafta darslarning qaysi qismida o`quvchilaringiz eng faol bo`ldi?
- ✓ Bu hafta darslarning qaysi qismida o`quvchilaringiz faolligi susaydi?
- ✓ Bu hafta o`quvchilaringizning qaysi xatti-harakatini boshqalar uchun ham manfaatli bo`ldi?
- ✓ Bu hafta o`quvchilaringizning qaysi xatti-harakati keltirib chiqargan muammo siz uchun yechimi yo`qdek tuyuldi?
- ✓ Bu hafta sinfdagi qaysi holat sizni eng ko`p hayratlantirdi?
- ✓ Hafta davomidagi mavzularning qamrovi qancha bo`ldi deb o`ylaysiz?
- ✓ O`quvchilar siz bergen yangi ma`lumotlarning qancha qismini to`liq tushundilar deb o`ylaysiz?
- ✓ Hafta davomidagi darslarni yanada samaradorligini oshirish uchun nimalar qilishingiz mumkin edi?
- ✓ Darslar davomida qaysi o`rinlarda noo`rin vaziyatlarni tashkil qildim deb o`yladingiz?

Zamonaviy pedagog sifatida boshlang`ich sinf o`quvchilariga refleksiv ta`lim berish uchun yuqoridagi kabi tahlil va analizga undovchi savollarni o`z-o`ziga berish foydalidir. Haftalik tahlil va analiz darslar davomidagi kamchiliklarni bartaraf etishga, o`quvchilardagi tanqidiy hamda kreativ fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. O`qituvchi o`zida refleksiv kompetensiyalarni rivojlantira borgani sayin ushbu kompetensiyalardan foydalanib bolalarni ham refleksiya asosida o`qitishni boshlaydi. Ya`ni, Bolani o`zini tahlil qilishga, xatolarini anglashiga va maqsadiga erishishi uchun qanday vazifalarni amalga oshirishi kerakligini o`rgatishga erishadi.

## REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida» qonuni. 1997.
2. «Ta`lim to`g`risida» O`zbekiston Respublikasi qonuni. Barkamol avlod- O`zbekiston kelajagining poydevori.-T.: 1998.21-b.
3. Abdullaeva Q.A, Safarova R.g‘, Bikbaeva N.U, Baxramov.
4. Boshlang`ich ta`lim konsepsiysi. Boshlang`ich ta`lim jurnali № 6-1998 y.
5. Abdullaeva q. Ochilov M., K.Nazarov, S.Fuzailov, N.Bikbaeva «Boshlang`ich mifik darsliklarini yaratish mezonlari. T.: 1999.
6. R.A.Mavlonova N.Raxmonqulova “Boshlang`ich ta`limning integratsiyalashgan pedagogikasi” T.: Ili-Ziyo 2009 y.
7. Umumiy o`rta va o`rta maxsus kasb- hunar ta`limi jarayonida fanlararo uzviylikni ta`minlash muammolari respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi Toshkent – 2009 y.

8. O‘zbekiston Respublikasining «Boshlang‘ich sinf tarbiya va sport to‘g‘risida» qonuni (Yangi taxrirda). 2000.
9. Safarova P.F., Sh.Ne’matov va boshq. O‘quv predmetlari mazmunini aniqlovchi asosiy parametrlar.- T:Fan va texnologiya, 2011 yil. 160b. [1,2], [1,8]
10. Olsson, Thomas; Martensson Katarina and Roxa, Torgny. Pedagogical competence. (manual). Swedish, Division for Development of Teaching and Learning,Uppsala University, 2010 yil. [4,4]
11. Ibragimov X., Yoldoshev U. va boshqalar. Pedagogik psixologiya. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007 yil.
12. Xoliqov A. Pedagogik mahorat.–T.: Iqtisod-moliya, 2011 yil. -163-164 betlar. [8,6]
13. Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. *Boshlang‘ich ta‘limda innovatsiyalar*, 1(Архив№ 2).
14. Abrorkhonovna, A. K. (2022). FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM THROUGH TOURISM IN THE CURRENT TEXTBOOK" UPBRINGING" OF PRIMARY EDUCATION. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 5, 70-74.
15. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.
16. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdiyeva, S. (2022, June). ORGANIZATION OF EXCURSIONS IN PRIMARY SCHOOL CLASSES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 139-143).
17. Abrorxonova, K. A., & Qizi, S. M. S. (2022). BOSHLANG ‘ICH SINF “TARBIYA” DARSLARINI TASHKIL ETISHNING USUL VA VOSITALARI. *Science and innovation*, 1(1), 54-61.
18. Hayitov, A. I., & Abdushukurova, D. (2022). EFFECTIVE WAYS TO ORGANIZE MOTHER TONGUE LESSONS IN PRIMARY CLASSES ON THE BASIS OF INTERACTIVE TECHNIQUES. *Conferencea*, 30-32.
19. Bakhtiyorovna, M. Z. (2021). INTEGRATED TEACHING OF PRIMARY EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1332-1336.
20. Anvar, H. Integrated Approach to Improving Pedagogical Abilities of Future Primary Education Teachers. *JournalNX*, 197-201.
21. Салаева М.С., Абдурасулова Ш.К. Педагог профессионализмининг шаклланиши қасбий қадрият сифатида намоён бўлиши // EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE Innovative Academy Research Support Center. www.in-academy.uz. ISSN 2181-2888. With Impact Factor: 8.2. Volume 2 Issue 02, February 2022 Pages 183 -188. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6242575>
22. Salaea M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | March, 2022. ISSN: 2181-1601. Uzbekistan [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf) Pages 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>
23. Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf) Pages 384-390. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>

24. Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda ota-onalarning o'tni // Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI BEKE». ISSN: 2658-7998. Электронный журнал. Выпуск №22 (том 5) (январь, 2022). - С.1099-1103.  
[https://www.mpcareer.ru/\\_files/ugd/a62191\\_0b77bb588ae44c41874c43e8211ea9a8.pdf](https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/a62191_0b77bb588ae44c41874c43e8211ea9a8.pdf)
25. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, ISSN - 2181-2608. With Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59–62. Retrieved from <http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>
26. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 www.in-academy.uz Volume 2 Issue 4, April 2022 ISSN 2181-2888. Pages 136-139. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330>
27. Salaeva M.S., Koshnazarova M.A., Abdukodirov G., Radjabova D.A. Professionalism of the Teacher as a Pedagogical Credo in the Age of Innovation // SPECIALUSIS UGDYMAS / SPECIAL EDUCATION 2022 1(43). Pp. 10571 – 10576.  
<https://www.sumc.lt/index.php/se/article/view/1637>
28. Muxammadeva, X. K., Nurmuratova, I., Tulaganova, S., & Jumaniyazova, M. (2022). O 'QUVCHILARDAGI KITOBOXONLIK MADANIYATI ORQALI ALTRUISTIK MOTIVLARNI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1284-1288.
29. Мухаммадиева, Х. К., & Исматуллаева, Ф. Р. (2022). БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ДИДАКТИК ЖАРАЁНДА БОЛАНИНГ РИВОЖЛАНИШНИ ТАЪМИЛЛОВЧИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-ПЕДАГОГИК ТАҲЛИЛИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(2), 77-82.
30. Muhammadiyeva, X. K., & Ergasheva, G. Z. (2021). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 10-14.
31. Эргашева, Г. М., Мухаммадиева, Х. К., & Артикбаева, Н. Н. (2021). Синфдан ташқари машғулотлар орқали ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш методлари. *Science and Education*, 2(5), 578-582.
32. Muhammadieva, K. (2020, June). The Idea “Personal Interests and the Priority of Education” in the Education as One of the Key Factors in Reforming School Education for Upbringing Perfect Individual. In *Proceedings of International Multidisciplinary Scientific-Remote Online Conference on Innovative Solutions and Advanced Experiments* (p. 22).
33. Абдуллаева, Ш. А., & Мухаммадиева, Х. К. (2016). Девиант хулқли илик ўспирин ёшидагиларни ижтимоийлаштириш ва профилактика ишларини олиб бориш. *Современное образование (Узбекистан)*, (11), 48-53.
34. Мухаммадиева, Х. К. (2014). Начальные сведения о развитии арифметики в трудах учёных математиков Востока. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (3-2), 230-231.

35. Tuxtayevna, H. M., Mahkambayevna, E. G. Z., & Karamatovna, M. X. Methodological Bases of Development of Socially Active Competencies of Future Primary School Teachers in Students and Improvement of Its Methodology. *International Journal of Health Sciences*, (II), 10646-10654.
36. Furkatovna, A. M. (2022). INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(7), 99-106.
37. Furkatovna, A. M. (2022). Methods of Innovation Approach to Forming Communicative Competence of Future Educators. *Eurasian Scientific Herald*, 10, 53-58.
38. Adilova, M. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FACTORS OF INNOVATIVE APPROACH TO THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF THE FUTURE TEACHER. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(04), 304-308.
39. Адилова, М. Ф. (2021). Формирование экологической культуры у учеников начального образования на основе медиатехнологий. *Science and Education*, 2(6), 543-546.
40. Адилова, М. Ф. (2020). РЕФОРМЫ В ОБРАЗОВАНИИ УЗБЕКИСТАНА: СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ. *Science and Education*, 1(7), 452-455.
41. Ergasheva, G. M., Sotiboldieva, S. J., & Adilova, M. F. (2020). COMPREHENSIVE APPROACH TO ASSESSING STUDENTS KNOWLEDGE IN PRIMARY SCHOOL BASED ON THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Theoretical & Applied Science*, (1), 56-62.
42. Bartlett, L. (1990). Teacher Development through Reflective Teaching. In J. C. Richards, & D. Nunan (Eds.), *Second Language Teacher Education* (pp. 202-214). New York: Cambridge University Press.
43. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Donald Allan Schon.